

ALISHER NAVOIY VA BOBUR IJODIDAGI O‘XSHASH JIHATLAR

Yunusova Rayxona Qo‘ziboy qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarix va filologiya”

Fakulteti “O‘zbek tili va adabiyot” yo‘nalishi

O‘TA2201U02-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyot namoyandalarining ijodi qiyoslash metodi asosida o‘rganiladi. Unda Alisher Navoiy va Bobur shaxsi va ijodidagi o‘zaro o‘xshash jihatlar tahlil qilinadi. Xususan, ularning badiiy va ilmiy ijodidagi mushtarak o‘rinlar haqida ma’lumot beriladi, misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Bobur, “Boburnoma”, devon, ruboiy, g‘azal, tuyuq, ijodiyot, meros, mushtarak.

СХОДСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ И БАБУРА

Юнусова Райхона Кузибой кизи

Ташкентский университет прикладных наук

Факультет: «История и филология»

Специальность: «Узбекский язык и литература»

Студент группы: O‘TA2201U02

Аннотация: В статье рассматривается творчество классиков литературы с использованием сравнительного метода. Анализируется сходство личностей и произведений Алишера Навои и Бабур. В частности, даётся информация об общих чертах их художественного и научного творчества, приводятся примеры.

Ключевые слова: Алишер Навои, Бабур, «Бабур-наме», диван, рубаи, газель, туюк, творчество, наследие, единство.

SIMILARITIES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND BABUR

Yunusova Rayhona Kuziboy kizi

Tashkent University of Applied Sciences Faculty: «History and Philology»

Major: «Uzbek Language and Literature»

Student of the group: O‘TA2201U02

Annotation: *This article studies the work of classical literary figures using the comparative method. It analyzes the similarities in the personalities and work of Alisher Navoi and Babur. In particular, it provides information about the common places in their artistic and scientific work, and gives examples.*

Keywords: *Alisher Navoi, Babur, «Babur-name», divan, rubai, ghazal, tuyuk, creativity, heritage, unity.*

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz.

Shavkat Mirziyoyev

Mustaqillik yillarida mutaffakir bobolarimizning boy ma’naviy-ma’rifiy merosini har tomonlama o‘rganishga e’tibor tubdan kuchaydi. Shu jumladan, Alisher Navoiy va Bobur ijodini teran tahlil va tadqiq etish imkoniyatlari nihoyatda kengaydi. O‘tgan davrda ularning barcha asarlari qayta-qayta chop etildi. Ushbu asarlar talqiniga bag‘ishlangan kitob va ilmiy maqolalar muntazam e’lon qilinmoqda. Mazkur xayrli ishlarga mamlakat rahbarining o‘zi bosh-qosh bo‘lib kelmoqda. Xususan, Prezidentimizning bir necha qaror va farmonlari Navoiy va Bobur tavallud sanalarini munosib nishonlash, ularning merosini o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib etish ishlarini jadallashtirishga bag‘ishlangan. Jumladan, joriy yilning 8-fevral kuni Navoiy shahrida bo‘lib o‘tgan “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” IV xalqaro simpoziumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida

yurtboshimiz “Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlarga, zamon va tarix sinovlarga to‘la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shgani yuksak hayrat va tahsinga munosib”ligini e’tirof etadi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 25-yanvarda qabul qilingan “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori Bobur merosiga yuksak hurmat namunasi bo‘ldi. Unda jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda mashhurligi, uning ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa egaligi takidlangan. Shu nuqtayi nazardan mazkur ajdodlarimiz ijodiyotining qiyosiy tahlili ularning har ikkisining mahorati va iste’dodi qanchalar bemisl bo‘lganini tasavvur qilishimizga asos bo‘ladi.

Navoiy va Bobur ijodiga nazar tashlansa, bu ikki buyuk shoir ijodida mushtarak nuqtalar ko‘plab uchrashini kuzatish mumkin. Bunday hamohanglikni ularning ruboiylarida, g‘azallarida, tuyuqlarida, masnaviylarida ko‘zga tashlanadi.

Garchi ular bir zamonning odamlari bo‘lishsa-da, oradagi masofa ularning uchrashuviga imkon bermadi. Navoiyning Boburga maktub yuborishi, Boburning Navoiyga yozgan javob xat bilan ular o‘rtasidagi rishta uzildi. Bobur Hirotga kelganda Navoiy vafot etgan edi. Bobur Navoiyning uyida ma‘lum muddat yashab, shu yerda Navoiy ijodiyoti bilan tanishdi. Bobur Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonini mutolaa qilib, aruz bahrida saylanma devon tuzadi. Ushbu holatni uning o‘zi shunday tavsiflaydi: “Alisherbekning uylarini ta‘yin qildilar. Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim. Odina kuni oyning yigirma uchida Alisherbekning 4 devonidin buhur va avzon tartibi bilan g‘azallar va abyotikim, intixob qilinadur edi, itmomig‘a yetti”. Shu kabi xatti-harakatlar bu ikki ijodkor she‘riyatida o‘xshash holatlarni yuzaga keltirgan.

Bobur Samarqand taxtidan mosuvo bo‘lib ona yurti Andijonga ham kira olmagan vaqtda yozgan ruboiysida vatandan ayriliqni quyidagicha izohlaydi:

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngilni mehnatda kishi.

Ko‘nglim bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,

G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

Bu ruboiy Navoiyning quyidagi mashhur ruboiysi ta‘sirida yozilgan:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Navoiy ruboiylari orasida ma‘shuqa maqtovini chiroyli tarzda ifoda etilgan quyidagi ruboiy bor:

Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,

Yuz birla so‘zing yaxshi dudog‘ing yaxshi.

Eng birla menging yaxshi saqog‘ing yaxshi,

Bir-bir ne deyin, boshdin-oyog‘ing yaxshi.

Bobur ijodida ham yor chiroyini boshdan-oyoq tasvirlovchi go‘zal ruboiy bor:

Jon vola erur la‘li shakar, bolingga,

Ko‘nglum ham erur xarob ruhsoringga.

Raftoring erur boshdin-oyoq barchasi xo‘b,

Men banda bo‘lay boshdin-oyoq boringga.

Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida tuyuq janriga misol sifatida Navoiyning quyidagi tuyug‘ini keltiradi:

La’lidan jonimg‘a o‘tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.

Men vafosi va’dasidan shodmen,

Ul vafo bilmonki, qilmas, yo qilur.

Xuddi shu kabi tajnis san’ati asosida vujudga kelgan tuyuq Bobur ijodida ham kuzatiladi:

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,

Ko‘nglum g‘am-u anduh o‘tig‘a yoqildi.

Holimni sabog‘a aytib erdim ey, gul,

Bilmon, sanga sharh qilmadi, yo qildi.

Navoiyning “Koshki” radifli g‘azali bor. Ushbu g‘azal Boburga ham zavq berib, bu g‘azalga nazira bog‘lagan. Quyida g‘azal va naziraning dastlabki ikki misrasini keltiramiz.

NAVOIY:

Ochmagay erdi jamoli olam aro koshki,

Solmag‘ay erdi bori olamg‘a g‘avg‘o koshki.

BOBUR:

Ko‘rmagan erdim jamoli olam aro koshki,

Bo‘lmag‘ay erdim bori olamda rasvo koshki.

Navoiy va Bobur ijodidagi o‘xshash jihatlardan yana biri ularning ko‘p tilli ijodkor ekanligidir. Adabiyotshunoslikda Navoiy va Boburni zullisonayn shoirlar deb baholanadi. Ularning har ikkisi ham turkiy va fors tillarida birday ijod qilgan bo‘lib, Navoiy ijodida, shuningdek, arab tilida, Bobur ijodida esa urdu tilida ham yozilgan she’rlarni uchratish mumkin.

Navoiy va Bobur merosida badiiy ijoddagi mushtaraklik bilan birga ilmiy ijodda ham hamohang nuqtalarni kuzatamiz. Ularning har ikkalasi serqirra va qomusiy bilimga ega shaxslardir. Ular o‘z zamonasining buyuk shoirlari bo‘lish bilan bir qatorda yetuk adabiyotshunos olimlari ham edilar. Xususan, ularning har ikkalasida ham aruz ilmiga bag‘ishlangan asarlar (Navoiyda “Mezon ul-avzon” Boburda “Muxtasar”) mavjud.

Navoiy ikkita tazkira (“Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”) yaratgan bo‘lsa, Bobur ushbu janrda maxsus asar yaratmagani holda “Boburnoma” asarida 30 dan ortiq shoir haqida ma’lumotlar qoldirgan. Bu ularning mohir adabiy tanqidchi ekanini ham ko‘rstadi.

Navoiy va Bobur tilshunoslikka ham hissa qo‘shganlar. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy va fors tillarini muqoyasa qilgan bo‘lsa, Bobur “Xatti Boburiy” deb nomlangan alifbo yaratdi.

Shuningdek, Navoiy va Bobur ijodida tarix ilmiga ham yuksak e’tibor berilgan. Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida Eron va Turon shohlari tarixini yoritgan bo‘lib, Boburning “Boburnoma” asari XVI asr tarixini izchil va haqqoniy aks ettirgan, Hindiston tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilingan xolis manbadir.

Navoiy va Bobur mohir tarjimonlardir. Navoiy Hazrati Alining 266 ta hikmatli so‘zlarini ruboiy shaklida tarjima qilib “Nazm ul-javohir”

asariga tartib bergan bo‘lsa, Bobur Xoja Valiyning “Volidiya” asarini tarjima qilgan.

Bulardan tashqari, ikki buyuk ijodkorning musiqa, arxitektura, dinshunoslik va boshqa ko‘plab sohalarda ham faol bo‘lganlari ma’lum. Biri shoh, biri vazir sifatida mamlakat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganlar. O‘z zamonasi va o‘zidan keyingi ijodkorlar badiiy ongi va tafakkuriga ulkan ta’sir o‘tkazganlar. O‘zbek mumtoz adabiyotining ilg‘or an’alarini munosib davom ettiruvchilar sifatida badiiy ijod va ilmni yuksak cho‘qqiga olib chiqqanlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Botirxon Akramov. “Fasohat mulkinging sohibqironi”. Toshkent – “O‘zbekiston”, 1991.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. Toshkent – “O‘qituvchi”, 2020.
3. Shavkat Mirziyoyevning “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” IV xalqaro simpoziumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. Navoiy. 08.02.2025
4. Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-20-son qarori. 25.01.2023.